



UDK 37.013.42:373.3:004

Nargiza G'ANIYEVA,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com

Yangi asr universiteti dotsenti v.b, PhD Sh. Tadjibayeva taqrizi asosida

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBA TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada mustaqil ta'limning maqsadi – ijodiy qo'llaniladigan bilimlar, ko'nikmalarni barqaror o'rganish bo'lib, chet el ta'lim tizimida bugungi kunda ko'plab Oliy ta'lim muassasalari o'z talabalariga mustaqil ta'lim orqali yangi bilim berishga intilayotgani maqolada yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, kompetentlik, ta'lim, tarbiya, pedagogik tajriba, rivojlanish.

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО И ОТЕЧЕСТВЕННОГО ОПЫТА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается цель самостоятельного обучения - устойчивое усвоение творчески применяемых знаний и навыков. Освещается тот факт, что в современной системе образования за рубежом многие высшие учебные заведения стремятся предоставить своим студентам новые знания посредством самостоятельного обучения.

Ключевые слова: Современное образование, педагогическая технология, компетентность, обучение, воспитание, педагогический опыт, развитие.

ANALYSIS OF FOREIGN AND LOCAL EXPERIENCE IN IMPROVING METHODS FOR DEVELOPING INDEPENDENT WORK SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article elucidates that the aim of independent learning is the sustainable acquisition of creatively applicable knowledge and skills. It highlights that in the foreign education system today, numerous higher education institutions are striving to impart new knowledge to their students through independent learning methods.

Keywords: Modern education, pedagogical technology, competence, education, upbringing, pedagogical experience, development.

Kirish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'lim jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor o'rin egallaydi. "Buning uchun pedagog kadrlardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan zamonaviy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarashga va puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo'lish talab etiladi"[1]. Xorijiy tajribalar tahlili asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda xorijiy tajribalar asosida ta'lim tizimidagi asosiy islohotlar olib borilishi katta axamiyatga ega. Yaratilgan imkoniyat yosh o'qituvchilar uchun keng salohiyat malaka va ko'nikma eshigini ochadi. Bu borada mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim

tizimi uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi jahon pedagogikasida ham, O'zbekiston ta'lim tizimida ham dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xorijiy tajribalarda mustaqil ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat va refleksiya kabi tamoyillar pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu jihatdan, bo'lajak pedagoglarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi asosan konstruktivizm, refleksiv pedagogika va faoliyat yondashuvi g'oyalari bilan uyg'unlashadi.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga nazar soladigan bo'lsak, A.K.Markovanning ta'kidlashicha didaktik kompetentlik o'qituvchi mehnat faoliyatining asosiy pedagogik jihatlarini tahlillar asosida yoritib berish va o'z ustida ishlash hamda egallagan bilim, ko'nikma, malaka va amaliy faoliyatning natijasi sifatida yuzaga chiqishi mumkinligi kabi masalalarga to'xtalib o'tgan [2].

Amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui (John Dewey) o'zining "Demokratiya va ta'lim" (1916) asarida o'quvchi

shaxsini faqat bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni faol tarzda yaratishda ishtirok etuvchi subyekt sifatida ko'radi. Dyuvi ta'limda tajribaga asoslangan faoliyatni eng muhim omil deb biladi. Unga ko'ra, mustaqil ishlash jarayonida o'quvchi o'z fikrini shakllantirish, qaror qabul qilish, natijani tahlil qilishni o'rganadi. Bu yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyatida ham muhim o'rin tutadi, chunki ular kelgusida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun o'zlari ham mustaqil fikr yurituvchi shaxs bo'lishlari zarur.

L.S. Vygotskiy (1982) tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida mustaqil faoliyatni rivojlantirishda tashqi yordam (o'qituvchi, murabbiy, tengdoshlar) muhim rol o'ynaydi. Bunda o'qituvchi dastlab o'quvchini yo'naltiradi, so'ngra asta-sekin unga mustaqil faoliyat yuritish imkonini beradi. Ushbu yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham amalda qo'llanib kelinmoqda, ayniqsa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda "ko'rsatma – hamkorlik – mustaqillik" tamoyillari orqali bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish samarali natija bermoqda.

O'zbekiston olimlari ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratganlar.

Raxmatova N. (2021) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limga tayyorligini rivojlantirishda o'quv topshiriqlarining tabaqalashtirilgan tizimini ishlab chiqdi. Uning fikricha, mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyatini rag'batlantiruvchi topshiriqlar, kreativ tafakkurni shakllantiruvchi vazifalar hamda refleksiv tahlil asosiy o'rinni egallashi lozim.

Xoliqov B. (2019) tomonidan ilgari surilgan "talabani o'quv faoliyatini individuallashtirish" g'oyasi ham mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, har bir talabani individual o'quv strategiyasi, motivatsiya darajasi va bilim qabul qilish uslubi hisobga olingan taqdirda, mustaqil ishlash samaradorligi yuqori bo'ladi.

Xorijiy tadqiqotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va o'qituvchining kasbiy rivojlanishida hamkorlikni kuchaytirish muhim jihatlari hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda mazkur soha bo'yicha rus metodist olimlari N.N.Svetlovskaya, O.V.Djejeley, V.I.Lvovlarning ilmiy ishlari, darslik va qo'llanmalari nashr etilgan.

O'zbekistonda, professor Q.Abdullayeva, K.Qosimova, O.Safarov, S.Matchonov, B.Maqulova, T.Adashboyev, E.Abdualitov, D.Shodmonqulova, X.G'ulomovlarning o'quv metodik qo'llanmalari va maqolalari nashr etilgan. Drozina V.V. o'quvchilarning ijodiy mustaqil faoliyatini tashkil etish nazariyasi va amaliyotining bog'liqligining asosiy qoidalarini shakllantirdi. "Mustaqil ish" tushunchasining mohiyati, maqsadlari, vazifalari, didaktik tamoyillari, mustaqil ishning vazifalari, o'quv jarayonida uni tashkil etish shakllari va usullari Garunova M.G.Korolkova, B.E.Nilson, O.A.Orlovskiy, V.G.Pidkasisty, P.I.Tsukar, N.I.Chikantsevalarning tadqiqotlarda to'liq va chuqur tahlil qilgan.

Xorijiy va mahalliy tajribalarni qiyosiy tahlil etar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, mustaqil ishlashni rivojlantirishda faol ta'lim metodlari (case-study, loyiha, "aqliy hujum", interfaol mashg'ulotlar), refleksiv tahlil va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nafaqat bilim, balki kompetensiya darajasini ham oshiradi.

Metodologik asos. Bugungi kunga kelib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e'tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmayotgan bo'lsa ham bu tushunchani ma'lum darajada pedagogik iste'molga kiritishga doir harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan, fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilingan. Bular:

Qabul qilish
Xohish va istak
Tasavvur qilish
O'z-o'zini kuzatish

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o'rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar bilan belgilanishi e'tirof etilgan. Bular:

Aqliy mehnat
Intuitsiya
Dunyoqarash

O'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, uni rag'batlantirish asosan quyidagilarga bog'liq:

O'qituvchining subyektiv pozitsiyasini mustahkamlash;

Uning yuqori darajadagi mobilligi va moslashuvchanligi;

Boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish;
Ta'lim sifati va natijasi uchun mas'uliyatni oshirish;
Kasbiy va shaxsiy rivojlanish;

Kasbiy motivatsiya, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirib borish.

Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish ta'limni isloh qilishning asosiy bo'g'inidir, chunki u kelajakda shaxsning butun hayot yo'lida ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish vektorini belgilaydi. Yuqoridagilarni amalga oshirishda Milliy o'quv dasturi loyihasi va "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"ni qayta ishlab chiqishga olib keldi. Ushbu hujjatlar insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi bolaning ruhiy holati, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi va xohishida kuzatiladi.

Mustaqil ta'lim olish jarayoni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki hayotning boshqa jabhalarida ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar uchun o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, yangi g'oyalarni o'rganish va individual muvaffaqiyatlarga erishish imkonini yaratadi. O'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zaruriy ko'nikmalar hisoblanadi.

Ushbu maqolada o'rganish jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanilgan. Bular orasida [3]

Nazariy tahlil: Mustaqil ta'limning nazariy asoslari va psixologik jihatlari o'rganildi.

Empirik tadqiqot: O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini baholash uchun so'rovnoma o'tkazildi.

Literaturaga tahlil: Mustaqil ta'lim bo'yicha mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar o'rganildi.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda xorijiy va mahalliy tajribalarning o'zaro sintezi muhimdir. Xorijiy tajribadan olingan nazariy-metodik yondashuvlar (shaxsiga yo'naltirilgan o'qitish, innovatsion texnologiyalar) hamda mahalliy tajribadan olingan amaliy jihatlari (pedagogik amaliyotni takomillashtirish, ilmiy-nazariy asoslarni qo'llash) birlashib, samarali metodika yaratilishi

mumkin. Bu metodika o'qituvchilarning o'zini o'zi rivojlantirishini rag'batlantirish, ijodkorligini oshirish va malakasini doimiy ravishda yangilab borishiga yordam beradi.

Mustaqil ishlarni tashkil qilish masalasi antik davrdan boshlab o'rganila boshlangan. Aristotil, Suqrot, Platon, Aristosen kabi bir qancha olimlar o'z asarlarida bolaning bilimni ixtiyoriy, faol va mustaqil egallashining ahamiyatlarini chuqur va har tomonlama asoslab berganlar. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, inson tafakkurining rivojlanishi faqat mustaqil faoliyat jarayonida, shaxsni takomillashtirish va uning qobiliyatini rivojlantirish o'z-o'zini bilish orqali muvaffaqiyatli davom etishi mumkinligidan kelib chiqadi. Bu berilayotgan vazifalar davomida o'quvchida quvonch, qoniqish

bag'ishlaydi va ularning fanga bo'lgan ishtiyoqini oshirib, ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishdagi passivligiga barham beradi. Bunday natijaga erishish uchun berilayotgan mustaqil ishlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi talab qilinadi. XVIII asr oxiridan boshlab pedagogik adabiyotlarda o'quvchilarning mustaqilligi ta'limning yetakchi tamoyillaridan biri sifatida qarala boshlandi. O'quvchilarning mustaqilligi va faolligini rivojlantirish masalasi K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimda markaziy o'rinni egallagan bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil ishini o'rganishning yosh davrlarini hisobga olgan holda tashkil etish yo'llari va vositalarini asoslab bergan.

ADABIYOTLAR

1. Ismailov A.A., O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning nazariy va institusional asoslari, Ta'lim va innovasion tadqiqotlar (2022 yil № 2), DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.28.34.014>
2. Маркова А.К., И.И. Бакулин., Г.С. Михайлов Соотношение профессиональных способностей к принятию и исполнению решений: Монография /, - М.: Народное образование, 2003. - 101 с.
3. Rasulov, D. (2019). Mustaqil ta'lim: nazariy va amaliy jihatlar. Ta'lim tadqiqotlari.
4. Asqarova O' va boshqalar. Pedagogika. 7-bob. Fan, 2004-yil. 2. "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T., –2016.
5. Khamraev A. Mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Ta'lim va Innovatsiyalar jurnali, 2020. 3(1), 23-31.
6. Makhmudova D. Pedagogik shart-sharoitlarning o'quvchilar ta'limiga ta'siri. Pedagogika va Psixologiya jurnali, 2019. 2(4), 56-63.
7. Амосова П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс...док.пед.наук. Астрахань, 1999. Ст.410.